

MUSTAQILLIGIMIZ ME’MORI

Sodiqova Muhabbatxon Salimovna

Ijtimoiy fanlar kafedrası o’qituvchisi, Andijon davlat
pedagogika instituti,

Keldiyeva Shahnoza

Ijtimoiy fanlar kafedrası o’qituvchisi , Andijon davlat
pedagogika instituti,

Yo’lchiboyeva Oysaraxon Sharifjon qizi

Aniq fanlar fakulteti, Fizika yo’nalishi talabasi ,
Andijon davlat pedagogika instituti,

Umaraliyeva Ruxshonaxon Umidjon qizi

Aniq fanlar fakultiteti, Matematika yo’nalishi talabasi,
Andijon davlat pedagogika instituti

Sotvoldiyeva Mehribon

Aniq fanlar fakultiteti, Fizika yo’nalishi talabasi, Andijon
davlat pedagogika instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14644547>

Annotatsiya: Ushbu maqola O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning faoliyati haqida fikr yuritiladi. Mustaqilligimiz me’mori, Mustaqilligimiz asoschisi ,O’zbekiston Respublikasi rivojlanishiga katta xissa qo’shgan inson.

Аннотация:

В данной статье отражена деятельность Ислама Абдугаъяневича Каримова, первого президента Республики Узбекистан Архитектора нашей независимости, основоположника нашей независимости, человека, внесшего большой вклад в развитие Республики Узбекистан.

Abstract:

This article discusses the activities of Islam Abduganiyevich Karimov, the first president of the Republic of Uzbekistan, the architect of our independence, the founder of our independence, a person who made a great contribution to the development of the Republic of Uzbekistan

Kalit so’zlar: Prezident, Respublika, ramzlar, orden, konsepsiya, konstitutsiya, qo’mita, kotib, me’mor ,mustaqillik, zavod, ittifoqdosh, yordamchi, tinchliksevar, o’zbek,xalq

Ключевые слова:

Президент, Республика, символы порядок, концепция, конституция, комитет, секретар, архитектор, независимость, завод, союзник, помощник, миролюбивый, узбек, нация.

Keywords:



President, Republic symbols, order, concept, constitution, committee, secretary, architect, independence, factory, ally, helper, peace-loving, Uzbek, people.

Mustaqilligimiz me'mori, asoschisi bo'lmish Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Prezidentimiz 1945-yilda Samarqanddagi A.S. Pushkin nomidagi 21-maktabga o'qishga kirib, uni oltin medal bilan tamomlaydi. Islom Karimov 1955-yilda O'rta Osiyo politexnika institutiga o'qishga kirdi. 1960-yilda uni tamomlab va "Toshselmash" zavodida o'z mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi. Bu zavod qishloq xo'jaligi texnikasing har xil turlarini, shu jumladan paxta terish mashinalarini ishlab chiqarardi. Ular O'zbekiston va boshqa respublikalar dehqonlarining mehnatini yengillashtirardi, shuningdek, boshqa mamlakatlarga eksport qilinardi.

1989-yil 23-iyun kuni I.A. Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi etib saylandi va o'sha vaqtda fojiali voqealar ro'y bergan pallada O'zbekiston boshqaruvini o'z zimmasiga oldi. O'zbekiston ittifoqdosh Respublikalardan birinchi bo'lib Respublika prezidenti lavozimini joriy qildi. 1990-yil 24-mart kuni Oliy Sovetning sessiyasida I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylandi. Birinchi prezidentimiz davrida ko'p o'zgarishlarga ega bo'ldik. Jumladan,

- O'zbekiston Respublikasi musaqilligiga
- O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga
- O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasiga
- O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlariga ega bo'ldik.

Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati kontseptsiya ishlab chiqilib, uning asosini tinchliksevarlik va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, vujudga keladigan ziddiyatlar va nizolarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan xal qilish tashkil qiladi. 2012-yilda ushbu hujjat parlamentimiz tomonidan tasdiqlandi. Prezidentimizning faoliyati xalqaro darajada ham yuksak baholandi. U boshqa mamlakatlarning quyidagi mukofotlar bilan taqdirlandi.

- Ukraina prezidentining faxriy nishoni 1992-yilda
- "Mugunxva" ordeni Koreya Respublikasida 1995-yilda
- "Altin Iran" ya'ni "Oltin burgut" ordeni Qozog'istonda 1997-yilda
- "Ulug' Vitautas" ordeni Litvada 2002-yilda



- “Oltin Runo” ordeni Gruziyada 2003-yilda

Prezidentimiz o‘z davrida ta’lim, sport, ma’daniyat-san’at to’g’risida, iqtisodiyotni rivojlantirishda ko’plab islohotlar o’tkazgan. Maksim Gorkiyning “Izergil kampir” hikoyasi 3-qismi personaji, o’zini qurbon qilib, o’z xalqini yonib turgan yuragi bilan qutqargan Danko yosh Islom Karimovning sevimli adabiyot qahramonlaridan biri sifatida so’ngi kunlarigacha qolgan. Uning “Otash kabi yonib, o’zgalar yo’lini yorit” shiori o’spirin yuragiga singib kelgusi yillarda ko’p takrorlangan hamda prezidentning o’ziga xos hayot mazmuniga aylangan. Prezidentimizning uch nafar farzandi va 6 nafar nabirasi bo’lib, ular bilan muloqat katta quvonch keltirardi. Uning rafiqasi- Tatiyana Karimova Akbarovna uning haqiqiy do’sti, yordamchisi, fikrdoshi edi, Islom Karimov bilan 47 yil baxti turmush qurib, u bilan hayotning barcha zahmatlarini baham ko’rdi. Mustaqil davlatimizning asoschisi Islom Karimov 2016- yil 2-sentyabr kuni soat 20:55 da Toshkentda miya qon aylanishining o’tkir buzilishi ya’ni insult oqibatida vafot etdi.

XULOSA:

Birinchi Prezidentga nisbatan samimiy mehr-muhabbat va chuqur hurmat ayniqsa motam kunlari kuchli namoyon bo’ldi.O’sha paytlarni xalqimiz ko’z yoshlar bilan eslaydi .Bizni mustaqillikka erishishimizga sababchi, yurboshimiz,bizning Otamiz kelajak avlod uchun ko’p yaxshilik qilib ketgan .Yurtboshimiz o’zi tavallud topgan shaharga so’nggi manziliga o’zini xalqi tomonidan kuztildi.Birinchi prezidentimizning vafoti butun o’zbek xalqi uchun juda og’ir ,tiklab bo’lmas yo’qotish bo’ldi desak xato bo’lmaydi.Yurtboshimiz Islom Karimov o’zini ona shahriga dafn etilishini hohlagan edi.Va uning vasiyato bajo keltirildi.2016-yil 3-sentabr kuni O’zbekistonning Birinchi Prezidenti o’zining kichik vatani- Samarqand shahrining qadimiy Hazrati Hizr masjidida dafn etildi. Prezidentimiz O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yilligiga bag’ishlangan o’z nutqini ushbu so’zlar bilan yakunlamoqchi edi. “Barcha ezgu ishlarimizga Yaratganning o’zi qo’llasin,o’zi madadkor bo’lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo’lsin!.

Afsuski bu so’zlarni aytshga ulgurmasi nasib qilmadi va bu so’zlar xalqimiz uchun vasiyatnoma hisoblanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<http://islomkarimov.uz/uz/page/tarjimai-hol>
- 2.O’zbekistonning eng yangi tarixi darsligi .
- 3.H.JURAYEV,B.IMINOV,L.BEGIMQULOVA,SH.OXUNJONOVA.
- 4.ShKeldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, (4 (26)).





5.Shaxnozaxon, K. (2023). JADID MA'RIFATPARVARCHLIK NAMOYONDALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY, FALASAFIY QARASHLARI. World scientific research journal, 15(1), 234-238.

Shaxnozaxon, K. (2023). JADID ZIYOLILARINING MILLIY MA'NAVIY ATIMIZDAGI AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(7), 35-38.

